



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


3 994,5
mlrd. so'm

112,6 %

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Navoiy viloyatida jami **3 994,5** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **112,6 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda**

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 704 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 148 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **112,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **50,9 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **111,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,2 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **105,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **41,9 %**) o'sishidir.




Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.11.2020- yil	01.11.2021- yil	
				
	Navoiy viloyati	1 556	1 704	109,5
	Navoiy sh.	426	485	113,8
	Zarafshon sh.	131	149	113,7
	G'ozg'on sh.	-	2	-
	<i>tumanlar:</i>			
	Karmana	254	283	111,4
	Konimex	38	40	105,3
	Qiziltepa	229	255	111,4
	Navbahor	187	190	101,6
	Nurota	99	108	109,1
	Tomdi	41	42	102,4
	Uchquduq	53	50	94,3
	Xatirchi	98	100	102,0




Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy shahri (28,5 %), Karmana (16,6 %) va Qiziltepa (15,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1 037,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **114,6 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **26,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **66,6 %** ni), Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **28,5 %** ni) va Navoiy shahriga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,4 %** ni) to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **46,2 %** ga to'g'ri kelib, 2020-yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,1** punktni tashkil etdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning mos davriga nisbatan **110,7 %** ni tashkil etgan holda **1 846,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **27,8 %** ni tashkil etdi yoki **1 110,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **114,1 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **810,0** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 184,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **19,4 %** va **80,6 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2021- yilning yanvar- oktabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulki		Davlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	3 994,5	3 184,5	100,0	810,0	100,0
Navoiy sh.	953,3	791,3	24,8	162,0	20,0
Zarafshon sh.	919,4	271,4	8,5	648,0	80,0
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	423,9	423,9	13,3		
Konimex	46,0	46,0	1,4		
Qiziltepa	640,4	640,4	20,1		
Navbahor	303,2	303,2	9,5		
Nurota	251,5	251,5	7,9		
Tomdi	24,8	24,8	0,8		
Uchquduq	57,6	57,6	1,8		
Xatirchi	374,4	374,4	11,9		

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda


Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar- oktabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 76,4 % ni yoki **3 050,3** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **1 037,7** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 26,0 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 846,1** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 46,2 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 110,7** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 27,8 % ni tashkil etdi.






**2021- yilning yanvar-oktabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sinh sur‘ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish (mlrd. so‘m)
Navoiy viloyati	3 994,5	112,6	2 954,4
Navoiy sh.	953,3	119,7	780,0
Zarafshon sh.	919,4	108,4	629,3
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	423,9	111,0	295,4
Konimex	46,0	91,2	32,5
Qiziltepa	640,4	125,2	457,9
Navbahor	303,2	106,9	200,9
Nurota	251,5	111,0	165,5
Tomdi	24,8	115,1	14,8
Uchquduq	57,6	105,1	44,3
Xatirchi	374,4	100,6	333,8

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **22,0 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,5** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **10,1** punktga ko'payib, **62,1 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-oktabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **9,8** punktga kamayib, **15,9 %** ni tashkil etdi.

ulushi, % da






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **17,5 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **0,1 %** ga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **82,5 % (0,4 % ko'payish)** ni tashkil etdi.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **15,2 %** ga kamaydi va **36,5 %** ni tashkil etdi. Qolgan **63,5 %** ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **15,4 %** ga ko'paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar- oktabr oylarida**

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	3 994,5	3 050,3	563,8	380,4
Navoiy sh.	953,3	704,1	176,6	72,6
Zarafshon sh.	919,4	515,1	218,9	185,4
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	423,9	376,1	29,5	18,3
Konimex	46,0	37,7	4,9	3,4
Qiziltepa	640,4	552,4	61,1	26,9
Navbahor	303,2	250,2	28,1	24,9
Nurota	251,5	220,0	13,5	17,7
Tomdi	24,8	20,2	1,8	2,8
Uchquduq	57,6	37,6	11,5	8,5
Xatirchi	374,4	336,9	17,6	19,9

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida
qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar
qurilishining ulushi, % da




Bino va inshootlar qurilishining
jami qurilish ishlariga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Xatirchi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 90,0 % ni yoki **336,9** mlrd. so'm), shuningdek, Karmana tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 88,7 % ni yoki **376,1** mlrd. so'm), Nurota tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 87,5 % ni yoki **220,0** mlrd. so'm) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 23,8 % ni yoki **218,9** mlrd. so‘m), Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 20,0 % ni yoki **11,5** mlrd. so‘m), Navoiy shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 18,5 % ni yoki **176,6** mlrd. so‘m) qayd etildi.

Fuqarolik obyektlari qurilishining jami qurilish ishlariga nisbati, % da




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlariga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 20,2 % ni yoki **185,4** mlrd. so‘m), Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 14,7 % ni yoki **8,5** mlrd. so‘m), Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 11,2 % ni yoki **2,8** mlrd. so‘m) qayd etildi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

(mlrd. soʻmda)



Maʼlumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm koʻrsatkichi Navoiy shahri (953,3 mlrd.soʻm), Zarafshon shahri (919,4 mlrd.soʻm), Qiziltepa (640,4 mlrd.soʻm), Karmana (423,9 mlrd.soʻm) tumanlariga toʻgʻri keladi.

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boʻlimi

Tel.: (71) 202-85-20; (79) 223-54-73